



TIJORAT BANKLARIDA YASHIL MOLIYA INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH VA INNOVATSION MAHSULOTLAR YARATISH

Mahmudov Ulug'bek

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
"O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy
asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi*

ORCID: 0009-0009-4166-5686

u_mahmudov@yahoo.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tijorat banklarida yashil moliya mahsulotlarini rivojlantirish va innovatsion mahsulotlar yaratish istiqbollari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yashil kreditlar, ESG investitsiyalari va yashil obligatsiyalar banklar faoliyatida ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Shuningdek, banklarda ekologik risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish, davlat va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik, yosh xodimlar va innovatsion g'oyalarni jalb qilish ham muhim strategik yo'nalishlar sifatida aniqlangan.

Kalit so'zlar: yashil moliya, tijorat banklari, yashil kreditlar, ESG investitsiyalari, barqaror rivojlanish, innovatsion mahsulotlar.

РАЗВИТИЕ ИНФРАСТРУКТУРЫ ЗЕЛЕННЫХ ФИНАНСОВ И СОЗДАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПРОДУКТОВ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ

Маҳмудов Улуғбек

Научно-исследовательский центр

*«Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана»
при Ташкентском государственном экономическом университете*

Аннотация. В статье рассматриваются перспективы развития зеленых финансовых продуктов и создания инновационных продуктов в коммерческих банках. Результаты исследования показывают, что зеленые кредиты, ESG-инвестиции и зеленые облигации являются важными инструментами обеспечения экологической, социальной и экономической устойчивости деятельности банков. Также выявлено, что совершенствование системы управления экологическими рисками, сотрудничество с государственными и международными финансовыми институтами, а также вовлечение молодых сотрудников и инновационных идей являются ключевыми стратегическими направлениями.

Ключевые слова: зеленые финансы, коммерческие банки, зеленые кредиты, ESG-инвестиции, устойчивое развитие, инновационные продукты.

DEVELOPMENT OF GREEN FINANCE INFRASTRUCTURE AND CREATION OF INNOVATIVE PRODUCTS IN COMMERCIAL BANKS

Mahmudov Ulug'bek

Scientific Research Center "Scientific Foundations and Problems of the Development of the Economy of Uzbekistan" under Tashkent State University of Economics

Abstract. *This article analyzes the prospects for developing green finance products and creating innovative products in commercial banks. The research results indicate that green loans, ESG investments, and green bonds serve as essential tools for ensuring environmental, social, and economic sustainability in banking activities. Additionally, improving ecological risk management systems, cooperation with state and international financial institutions, and engaging young professionals and innovative ideas have been identified as key strategic directions.*

Keywords: *green finance, commercial banks, green loans, ESG investments, sustainable development, innovative products.*

Kirish.

So'nggi yillarda barqaror rivojlanish konsepsiyasi butun dunyo iqtisodiyotida strategik ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda. Global iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning cheklanganligi, ekologik muammolarning keskinlashuvi va ijtimoiy barqarorlik talablarining oshishi moliya sektorini ham yangi yechimlar izlashga majbur qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, tijorat banklarida yashil moliya infratuzilmasini rivojlantirish va innovatsion mahsulotlar yaratish dolzarb ilmiy va amaliy masala sifatida ko'riladi.

Yashil moliya — bu ekologik jihatdan barqaror loyihalarni moliyalashtirish, tabiiy resurslarni samarali ishlatish va ijtimoiy mas'uliyatni ta'minlashga qaratilgan moliyaviy vositalar tizimi hisoblanadi. Tijorat banklari esa ushbu jarayonda asosiy rolni o'ynaydi: ular orqali yashil kreditlar, yashil obligatsiyalar, ESG (Environmental, Social, Governance) investitsiyalar va boshqa innovatsion moliyaviy mahsulotlar orqali iqtisodiyot ekologik jihatdan barqaror yo'nalishga yo'naltiriladi.

O'zbekiston sharoitida yashil moliya sohasining rivojlanishi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki mamlakatning ekologik xavfsizligini ta'minlash va xalqaro moliyaviy standartlarga moslashish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, tijorat banklarida innovatsion yashil mahsulotlar yaratish va ularni joriy etish orqali banklar o'z risklarni boshqarish tizimini takomillashtiradi, investitsiya jalb qilishni kuchaytiradi va raqobatbardoshlikni oshiradi.

Adabiyotlar sharhi.

Brundtland (1987) barqaror rivojlanish konsepsiyasini shakllantirib, moliya tizimida ekologik va ijtimoiy mas'uliyatni integratsiyalash zarurligini ta'kidlaydi. Shu orqali banklar yashil moliya va ekologik barqarorlikni amalga oshirishda muhim rol o'ynashi mumkin.

Stiglitz va Sen (2010) iqtisodiy o'sishni faqat ICHM bilan baholash yetarli emasligini, ekologik va ijtimoiy ko'rsatkichlarni ham hisobga olish lozimligini bildiradi. Yashil moliya vositalari uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda strategik ahamiyatga ega.

Khan (2022) tijorat banklari yashil kreditlar, ESG investitsiyalar va yashil obligatsiyalar orqali iqtisodiyotning ekologik barqarorligini ta'minlay oladi. Shu bilan birga, yashil moliya mahsulotlarini rivojlantirish bank infratuzilmasini mustahkamlashga yordam beradi.

Shitian (2025) Xitoy banklari misolida yashil kreditlar banklarning rentabelligiga ta'sirini o'rganib, yashil moliya mahsulotlarini joriy etishda ehtiyotkorlik va strategik rejalashtirish zarurligini ta'kidlaydi.

Dewi va boshqalar (2024) yashil bankchilik va bank mahsulotlarini rivojlantirish barqaror iqtisodiy o'sish uchun muhimligini ko'rsatadi. Banklar yashil mahsulotlar orqali ijtimoiy va ekologik barqarorlikni ta'minlashi mumkin.

Yameen va boshqalar (2024) bank sektorida yashil moliyaning joriy holati va uni qabul qilishga ta'sir qiluvchi 22 ta omil aniqlangan. Banklarda yashil moliya mahsulotlarini joriy etishda ichki siyosat, bank madaniyati, texnologiya va innovatsiyalar hamda tashqi regulativ muhit muhim omillar hisoblanadi.

Muchiri va boshqalar (2025) yashil bankchilik amaliyotlari va banklarning rentabelligi o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilingan. Yashil mahsulotlar banklar uchun darhol katta moliyaviy foyda bermasligi mumkin, va mahsulot joriy etishda bozor, regulatsiya va ichki imkoniyatlarga moslash zarur.

Kothiyal va Tripathi (2024; 2025) Hindiston banklari misolida yashil moliyalash va ekologik ko'rsatkichlar o'rtasidagi munosabat tadqiq qilingan. Banklar yashil moliyalashtirish yo'nalishlari orqali ekologik foyda, ijtimoiy mas'uliyat va bank reputatsiyasini oshirishi mumkin.

Bi va Lian (2022) banklarning yashil moliya orqali iqlim xavflariga tayyorlanishi va iqtisodiy chidamliligini oshirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Banklarga iqlim va ekologik risklarni nazorat qilish, yashil investitsiyalarni jalb qilish tavsiya etiladi.

Setyorini, Hakam (2025) Indoneziya banklari yosh xodimlari fikri asosida yashil bankchilik amaliyotlari va ekologik ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik o'rganilgan. Yosh xodimlar yashil moliyaga ijobiy munosabatda bo'lib, yangi avlod banklarda yashil mahsulotlarni joriy etishda faol rol o'ynaydi.

Albanaa va Abdel (2024) bank rahbarlari nuqtai nazaridan yashil moliyalashtirishning bank faoliyatiga ta'siri tahlil qilingan. Bank rahbarlari yashil moliyalashtirishni strategik ustuvorlik deb bilib, mahsulot assortimenti, tashqi hamkorlik va ichki jarayonlarni moslashtirish zarurligini ta'kidlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda tijorat banklarining moliyaviy risklarini boshqarish amaliyoti o'rganildi hamda xorijiy mamlakatlardagi klassik va zamonaviy yondashuvlar tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida nazariy adabiyotlar, empirik tadqiqotlar va statistik ma'lumotlar asosida solishtirma tahlil va tizimli yondashuv usullari qo'llanildi. Shu orqali banklar o'rtasidagi risklarni boshqarish tizimlari va turli mamlakatlardagi amaliyotlar o'rganilib, samarali metodlar va strategiyalar aniqlandi. Empirik tahlil natijalari moliyaviy risklarni boshqarishdagi mavjud muammolar va innovatsion yondashuvlarni aniqlash imkonini berdi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, yashil moliya banklar uchun nafaqat ekologik va ijtimoiy mas'uliyat, balki strategik rivojlanish yo'nalishidir. Yashil moliya mahsulotlarini joriy etish orqali banklar ekologik barqarorlikni ta'minlab, iqtisodiy raqobatbardoshlik va investitsiya jalb qilish imkoniyatini oshiradi.

Banklarda yashil kreditlar, yashil obligatsiyalar va ESG investitsiyalari orqali ekologik loyihalarni moliyalashtirish amaliyoti rivojlanmoqda. Masalan, O'zbekistonda 2023–2024 yillar oralig'ida energiyaga oid mo'ljallangan yashil kreditlar hajmi sezilarli darajada oshgani haqida ma'lumotlar mavjud: "Inclusive Green Finance is taking root in AFI's Eastern Europe and Central Asia Region" hisobotiga ko'ra, 2023 yil apreldan 2024 yil fevraligacha yashil energiya kreditlari hajmi taxminan etti barobar oshgan. (AFI Global, 2024)

Shuningdek, 2024 yil iyunida Jahon banki O'zbekistonga 500 000 tonna CO₂ emissiyasini qisqartirish orqali 7,5 million \$ grant ajratganini e'lon qildi. ([worldbank, 2024](#)). Bu kabi moliyaviy qo'llab-quvvatlash banklar va moliya institutlari uchun yashil mahsulotlarni rivojlantirish salohiyatini oshiradi.

Yashil moliya mahsulotlarini joriy etishda banklar ekologik risklarni baholash va monitoring qilish metodologiyasini takomillashtirishi zarur. Markaziy bank tomonidan 2024 yilda “Green Monetary Policy” bo'yicha hujjatlar taqdim etilgan. (cbu, 2024).

Bunday yondashuvlar banklarning kredit portfellarida iqlim-va ekologik xavf omillarini hisobga olish imkonini oshiradi.

Yashil moliya samaradorligini oshirishda davlatning soliq imtiyozlari, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik muhim rol o'ynaydi. Masalan, 2024 yil oktabrida International Finance Corporation O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida 240 million \$ miqdorida investitsiya e'lon qildi. (IFC, 2024).

Shu bilan birga, 2024 yilda moliyaviy regulatsiya va infratuzilma rivoji bo'yicha strategiyalarni qo'llash boshlangan. (Global Green Growth Institute, 2024).

Bu holatlar banklar uchun yashil mahsulotlar joriy etishda yanada mustahkam siyosiy va moliyaviy muhit yaratayotganini ko'rsatadi.

Mahalliy banklar sug'urta, investitsiya kompaniyalari va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda yashil moliya infratuzilmasini rivojlantirmoqda. Masalan, O'zbekistonda yashil moliya infratuzilmasini ko'paytirish bo'yicha bir qator tashabbuslar bor, jumladan kredit liniyalari, moslashtirilgan moliyaviy mahsulotlar, va yangi regulyatorlik hujjatlar.

Bunda, portfel diversifikatsiyasi, innovatsion mahsulotlar (masalan, yashil obligatsiyalar) va banklarning ekologik jihatdan mas'ul faoliyatlari raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

Yashil moliya mahsulotlarini joriy etishda yosh xodimlar va yangi avlodning roli muhim. Ular ekologik mas'uliyatni yuqori darajada qabul qilib, innovatsion yechimlarni tezroq amalga oshirishga yordam beradi. Banklar esa ushbu resursdan foydalanib, yangi mahsulotlar yaratishda kreativ yondashuvlarni qo'llamoqda.

Quyidagi jadvalda banklarda joriy etilayotgan yashil moliya mahsulotlarining asosiy afzalliklari ko'rsatilgan. Jadval banklar faoliyati, ekologik va ijtimoiy mas'uliyat hamda iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan tahlil qilingan.

1-jadval

Yashil moliya mahsulotlarining asosiy afzalliklari

№	Afzalliklar	Izoh	Manba
1	Ekologik barqarorlik	Yashil kreditlar, ESG investitsiyalar va yashil obligatsiyalar orqali ekologik loyihalarni moliyalashtirish imkoniyati	World Bank, 2024
2	Iqtisodiy rentabellik	Bank portfeli diversifikatsiyasi va innovatsion mahsulotlar orqali uzoq muddatli iqtisodiy foyda	IFC, 2024
3	Ijtimoiy mas'uliyat	Bankning ekologik va ijtimoiy mas'uliyatini oshiradi, mijozlar va jamoatchilik ishonchini mustahkamlaydi	AFI Global, 2024
4	Investitsiyalarni jalb qilish	Yashil mahsulotlar orqali xalqaro va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyati	GGGI, 2024
5	Risklarni boshqarish	Ekologik va iqlim risklarini nazorat qilish, bank faoliyatining xavfsizligini oshirish	CBU, 2024
6	Innovatsion rivojlanish	Yosh xodimlar va yangi avlodning innovatsion g'oyalarini qo'llab-quvvatlash, yangi mahsulotlar yaratish	World Bank & IFC, 2024

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, yashil moliya mahsulotlarining afzalliklari bir necha yo'nalishda namoyon bo'ladi.

1. Ekologik barqarorlik – Yashil moliya mahsulotlari banklar orqali amalga oshirilayotgan ekologik loyihalarni moliyalashtirish imkonini beradi. Bu esa uzoq muddatli barqaror rivojlanishga hissa qo'shadi.

2. Iqtisodiy rentabellik – Garchi yashil mahsulotlar darhol katta moliyaviy foyda bermasa-da, portfelni diversifikatsiya qilish va innovatsion mahsulotlarni joriy etish orqali banklarning uzoq muddatli rentabelligi oshadi.

3. Ijtimoiy mas'uliyat – Yashil moliya banklarning ekologik va ijtimoiy mas'uliyatini kuchaytirib, mijozlar va jamoatchilik orasida obro'ni mustahkamlaydi.

4. Investitsiyalarni jalb qilish – Xalqaro va mahalliy investorlar yashil moliya mahsulotlariga qiziqadi, shu bilan banklar qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

5. Risklarni boshqarish – Ekologik va iqlim xavflarini oldindan baholash va nazorat qilish bankning umumiy xavfsizlik tizimini mustahkamlaydi.

6. Innovatsion rivojlanish – Yashil moliya mahsulotlarini joriy etishda yosh xodimlar va yangi avlodning kreativ fikrlari inobatga olinadi, bu esa bankning innovatsion mahsulotlarini yaratish va rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tijorat banklarida yashil moliya mahsulotlarini rivojlantirish nafaqat ekologik va ijtimoiy mas'uliyatni oshirishga xizmat qiladi, balki banklarning strategik rivojlanishi, iqtisodiy raqobatbardoshligini kuchaytirish va investitsiya jalb qilish imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Yashil kreditlar, ESG investitsiyalari va yashil obligatsiyalar orqali banklar ekologik loyihalarni moliyalashtirish, portfel diversifikatsiyasini amalga oshirish va uzoq muddatli barqaror rentabellikka erishish imkoniyatiga ega.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, yashil moliya mahsulotlarini muvaffaqiyatli joriy etishda ekologik va iqlim risklarini baholash tizimi muhim ahamiyatga ega. Banklar o'z ichki audit va risklarni boshqarish mexanizmlarida ekologik xavflarni oldindan aniqlash va monitoring qilish orqali faoliyat xavfsizligini oshirishi mumkin. Shu bilan birga, davlat qo'llovi, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik va soliq imtiyozlari yashil moliya mahsulotlarining samaradorligini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Innovatsion mahsulotlar va yosh xodimlarning kreativ yondashuvlari banklarda yashil moliya infratuzilmasini kengaytirish va yangi mahsulotlarni yaratishda muhim resurs sifatida namoyon bo'ladi. Yashil moliya mahsulotlari orqali banklar jamoatchilik ishonchini mustahkamlash, ijtimoiy mas'uliyatini oshirish va raqobatbardoshligini kuchaytirish imkoniga ega.

Shu asosda quyidagi tavsiyalar ishlab chiqiladi:

1. Yashil moliya mahsulotlarini kengaytirish. Tijorat banklari kredit portfeli va moliyaviy xizmatlarda yashil mahsulotlar assortimentini ko'paytirishi, shu jumladan, yashil obligatsiyalar va ESG investitsiyalarini joriy etishi lozim.

2. Ekologik risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish. Banklar ichki audit va risklarni boshqarish tizimlarida ekologik va iqlim xavf omillarini hisobga olishni majburiy qilsin.

3. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish. Xalqaro moliyaviy institutlar va donor tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish orqali yashil moliya mahsulotlarini moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirish.

4. Yosh xodimlar va innovatsion g'oyalarni jalb qilish. Banklarda yashil moliya va yangi mahsulotlarni rivojlantirishda yosh xodimlarning kreativ fikrlari va innovatsion yondashuvlari faol ishlatilishi lozim.

5. Raqamli texnologiyalarni joriy etish. Yashil moliya mahsulotlarini boshqarish va monitoring qilishda zamonaviy IT-platfomalar va raqamli yechimlardan foydalanish tavsiya etiladi.

6. Xalqaro tajriba asosida moslashtirish. Xorijiy mamlakatlardagi yashil bankchilik va moliya amaliyotlarini o'rganib, milliy sharoitga moslash va samarali strategiyalarni ishlab chiqish zarur.

Shu bilan, tijorat banklarida yashil moliya mahsulotlarini rivojlantirish nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlaydi, balki iqtisodiy modernizatsiya, innovatsion rivojlanish va ijtimoiy mas'uliyatni oshirishning samarali mexanizmi sifatida xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Albanaa Z. M., Abdel Amir N. N. (2024) Green financing and its role in improving the performance of green banks: an analytical survey // *journals.uokerbala.edu.iq*. – P. 33–50.

Alliance for Financial Inclusion (AFI). (n.d.). Inclusive green finance is taking root in AFI's Eastern Europe and Central Asia region. Available at: <https://www.afi-global.org/news/inclusive-green-finance-is-taking-root-in-afis-eastern-europe-and-central-asia-region>

Bi Sh., Lian Y. (2022) Green Finance in Banks: Addressing Climate Risks and Enhancing Economic Resilience // *ijrst.com*. – P. 50–68.

Brundtland B. (1987) *Our Common Future*. – Oxford: Oxford University Press. – 400 p.

Central Bank of Uzbekistan (CBU). (n.d.). Green Monetary Policy Framework. Available at: https://cbu.uz/upload/iblock/253/lwnlxcqdsgaqp4pnpw0nsgdidpx6g/Green_MP_en.pdf

Dewi N. S., Gunawan V. C., Indriani F. (2024) Green Banking Practices and Sustainable Economic Growth // *Journal of Banking & Finance Studies*. – Vol. 12, № 3. – P. 101–120.

Global Green Growth Institute (GGGI). (2025). Uzbekistan Country Planning Framework (CPF). Available at: https://gggi.org/wp-content/uploads/2025/01/digital_GGGI-Uzbekistan-CPF_EN_with-annex-1.pdf

Han Shitian (2025) Green Credit and Bank Profitability in China // *International Journal of Finance*. – Vol. 10, № 1. – P. 78–95.

International Finance Corporation (IFC). (2024). IFC partners with ACWA Power to support Uzbekistan's renewable energy transition. Available at: <https://www.ifc.org/en/pressroom/2024/ifc-partners-with-acwa-power-to-support-uzbekistan-s-renewable-energy-transition>

Khan M. Z. (2022) Green Banking and Sustainable Finance: The Role of Commercial Banks in Promoting Environmental Sustainability. *Journal of Sustainable Finance*. Vol. 14, № 2. P. 45–62.

Kothiyal H., Tripathi S. (2024/2025) Effect of Green Finance on Environmental Performance of Banking Institutions: A Critical Review // *ojs.as-pub.com*. – P. 12–29.

Muchiri M. K., Fekete-Farkas M., Erdei-Gally S. K. (2025) How Do Green Banking Practices Impact Banks' Profitability? A Meta-Analysis // *MDPI Sustainability*. – Vol. 17, № 4. – P. 45–63.

Setyorini M., Hakam D. F. (2025) The Impact of Green Banking Activities on Environmental Performance: A Youth-Driven Perception Study in Indonesian Financial Institutions // *MDPI Sustainability*. – Vol. 18, № 2. – P. 77–92.

Stiglitz J., Sen A. (2010) *The Measurement of Economic Performance and Social Progress Revisited*. – New York: Columbia University Press. – 350 p.

World Bank. (2024). Uzbekistan receives \$7.5 million in carbon credits for enabling half a million tons of emissions reduction. Available at: <https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2024/06/21/uzbekistan-receives-7-5-million-in-carbon-credits-for-enabling-half-a-million-tons-of-emissions-reduction>

Yameen J., et al. (2024) Green finance in banking industry: a systematic literature review // *IDEAS/RePEc*. – P. 1–28.